

LEGAL
SCIENCES.UZ

**YURIDIK FANLARNING
DOLZARB MASALALARI**

2-JILD | 1-SON

2026

LEGALSCIENCES.UZ

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

2-jild 1-son 2026-yil

TOSHKENT-2026

BOSH MUHARRIR:

Amirov Zafar Aktamovich — yuridik fanlar doktori

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0003-1721-0189

Imomov Nurillo Fayzullayevich

Yuridik fanlar doktori, professor
E-mail: nurillo_1212@mail.ru

Hakimov Komil Baxtiyarovich

Yuridik fanlar doktori, professor
E-mail: professorkomilkhakimov@gmail.com

Matkarimov Kudrat Kalandarovich

Yuridik fanlar doktori, dotsent
Email: qudrat1979uzb@gmail.com

Umarxanova Dildora Sharipxanovna

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-3492-010X

Fazilov Farhod Maratovich

Yuridik fanlar doktori (DSc), professor
ORCID: 0000-0001-8603-1948

Kadirova Moxigul Xamitovna

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
ORCID: 0000-0003-1450-7542

Pirmatov Otabek Shavkatovich

Yuridik fanlar doktori (DSc), dotsent
ORCID: 0000-0002-0774-661X

Xudaykulov Feruzbek Xurramovich

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0002-4940-3762

Ismoilov Shuhratjon Abdusaminovich

Yuridik fanlar doktori, professor
ORCID: 0000-0003-0947-6163

Boymurodov Botir Panji o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
ORCID: 0009-0003-7377-3995

Tojiboyev Akbar Zafar o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
ORCID: 0000-0002-9873-6061

Nodirov Muzaffar Axmad o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
ORCID: 0000-0003-3733-2554

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li

Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
ORCID: 0000-0002-9867-3363

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:
scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

YURIDIK FANLARNING
DOLZARB MASALALARI
2-jild, 1-son (fevral, 2026). - 42 bet.

MUNDARIJA

<i>Turdiyev Bexruz</i> HUQUQIY NIGILIZM FENOMENI VA UNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	5-8
<i>Ergashev Ikrom</i> SOLIQA OID MA'MURIY HUQUQBUZARLIKLAR VA ULARNI SODIR ETGANLIK UCHUN JAVOGBARLIK	9-17
<i>Rahmatov Elyor</i> BOJXONA NAZORATINI PROTSESSUAL SHAKLDA TASHKIL ETISHDA BOJXONA ORGANLARINING HUQUQ VA MAJBURIYATLARINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARI	18-24
<i>Hakimov Komil</i> IJTIMOIY XAVFLI QILMISHNI SODIR ETGAN SHAXSNI USHLASH VAQTIDA ZARAR YETKAZISHGA DOIR AYRIM MASALALAR	25-29
<i>Niyozova Salomat</i> KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN KRIMINOLOGIK CHORA-TADBIRLAR VA MEXANIZMLAR	30-36
<i>Nodirov Muzaffar</i> JINOYAT SUDLOVI TIZIMIDA YUVENAL YUSTITSIYA MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	37-41

Article / Original Paper

KORRUPSIYAVIY JINOYATLARNI OLDINI OLISHGA QARATILGAN KRIMINOLOGIK CHORA-TADBIRLAR VA MEXANIZMLAR

Niyozova Salomat Saparovna

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Jinoyat huquqi, kriminologiya va korrupsiyaga qarshi kurashish” sho‘basi professori,
yuridik fanlar doktori

E-mail: salomat.niyozova@mail.ru

Tel: +99899 835 80 70

Annotatsiya. Mazkur maqolada korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan kriminologik chora-tadbirlar va mexanizmlariga doir masalalar bayon etilgan. Shuningdek, maqolada korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bilan bog‘liq taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: javobgarlik, jinoyat, korrupsiyaviy jinoyatlar, oldini olish, kriminologik, chora-tadbirlar, mexanizmlar, huquqbuzarliklar, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy.

CRIMINOLOGICAL MEASURES AND MECHANISMS AIMED AT PREVENTING CORRUPTION CRIMES

Niyozova Salomat Saparovna,

Professor of the Department of “Criminal Law,

Criminology and Combating Corruption”

of Tashkent State Law University,

Doctor of Law

Annotation. This article describes issues related to criminological measures and mechanisms aimed at preventing corruption crimes. The article also presents proposals and recommendations related to the problems arising in the prevention of corruption crimes and their elimination.

Keywords: liability, crime, corruption crimes, prevention, criminological, measures, mechanisms, offenses, legal, socio-economic.

Korrupsiya – hokimiyat vakolatlarini shaxsiy manfaatlar yo‘lida suiiste‘mol qilish orqali davlat va jamiyat taraqqiyotini izdan chiqaruvchi xavfli illatdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “korrupsiya shunday yovuz illatki, u xalqning davlatga, Konstitutsiya va qonunlarga ishonchiga putur yetkazadi, barqaror rivojlanish va xavfsizlik uchun jiddiy tahdidga aylanadi”[1].

Darhaqiqat, korrupsiya jamiyatning huquqiy va ijtimoiy asoslarini yemiruvchi, iqtisodiy taraqqiyotga to‘sqinlik qiluvchi va davlat boshqaruvi samaradorligini pasaytiruvchi xavfli omildir. Bu holat esa mamlakatimizda qonun ustuvorligini ta‘minlash yo‘lida jiddiy to‘siqlarni yuzaga keltiradi. Shu sababdan, korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olish masalasi davlatimiz siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmonidan kelib chiqib, "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasining 16-maqsadi jamoat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning sodir etilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etishning samarali tizimini yaratishdan iboratdir.

Unda huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish" hamda bunda korrupsiyaviy jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan kriminologik chora-tadbirlar va mexanizmlarni takomillashtirish va uni tadqiq etishning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmonidagi ustuvor maqsadlarga erishish maqsadida 2025 yil 3 yanvardagi "2025 yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2026 yil 5 yanvarda "Respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish yo'nalishida yaxlit manzilli ishlash tizimini joriy etishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-1-sonli qarorlari qabul qilinib, bu borada bir qancha vazifalar belgilab berildi.

Kriminologik adabiyotlarda jinoyatchilikning oldini olish tushunchasi bo'yicha turlicha qarashlar mavjud bo'lsa-da, uning yagona va umum e'tirof etilgan ta'rifi hanuzgacha shakllanmaganligi ko'pchilik mutaxassislar tomonidan ta'kidlanadi.

Jumladan, M.Usmonaliyev va Y.Karaketovning fikrlariga ko'ra, kriminologiyada jinoyatchilikni oldini olish deganda, jinoyatchilikni, alohida turdagi jinoyatlarni hamda aniq jinoyatlarni aniqlash, ularni kamaytirish, sharoit va sabablarni bartaraf qilishga qaratilgan hamda shaxslarning yashash muhiti yoki xulqi jinoyat yo'liga o'tib qolishi yoki jinoiy faoliyatga qaytarishiga olib keluvchi sharoitlarni bartaraf qilishga qaratilgan ko'p bosqichli davlat va jamoat choralari tizimi tushuniladi[2].

Oldini olish faoliyati jinoyat qonunchiligida belgilangan eng muhim vazifalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 2-moddasiga ko'ra, jamiyat va davlat manfaatlarini jinoyat ko'rinishidagi har qanday tajovuzlardan himoya qilish jinoyat qonunchiligining eng asosiy va ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonunida, huquqbuzarliklar profilaktikasiga – huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimidir deb ta'rif berilgan[3].

Huquqbuzarliklar tizimi ma'muriy hamda jinoiy qilmishlarni o'z ichiga olishini hisobga olsak, mazkur tushunchani jinoyatlarning oldini olish sohasida ham qo'llashimiz mumkin.

Jinoyatlarning oldini olishda samarali yondashuvlarni aniqlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Q.Abdurasulovanning ta'kidlashicha, har qanday jinoyatning oldini olish chora-tadbirlari tizimini umumiy, maxsus va individual profilaktika kabi uch asosiy yo'nalishga bo'lish mumkin[4].

Umumiy profilaktika – keng miqyosda huquqbuzarliklarning sabab va sharoitlarini aniqlash, bartaraf etishga qaratilgan, jamiyatning barcha a’zolariga yoki ayrim guruhlariga ta’sir ko’rsatadigan huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy choralar majmui. I.I.Gerbekovning fikricha, umumiy profilaktika jamiyat va davlatning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar qilish orqali, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhitni yaxshilash, fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish, huquqbuzarliklarning asosiy sabab va omillarini bartaraf etishga xizmat qiladi[5].

Korrupsiyaga qarshi kurashning umumiy profilaktikasi jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish va korrupsiyaviy holatlarning yuzaga kelishga sabab bo’luvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan. Bu profilaktika turi barcha davlat organlari, mahalliy hokimiyat organlari, korrupsiyaga qarshi kurashuvchi maxsus organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshiriladi.

Maxsus profilaktika – huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan jinoyatchilikka sabab bo’layotgan omillarni aniqlash, ushbu omillarni bartaraf etish, jinoyat sodir etgan yoki sodir etishi mumkin bo’lgan shaxslarga nisbatan maqsadli va tizimli profilaktik tadbirlarni amalga oshirishdan iborat chora-tadbirlar tizimidir[6].

Individual profilaktika – korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etishga moyil bo’lgan aniq shaxslar bilan ishlash orqali ularning ijtimoiy, huquqiy va axloqiy tuzatilishiga qaratilgan choralar majmuidir.

Bugungi kunda, kriminologiyada jinoyatchilikni oldini olish choralari umum-ijtimoiy va maxsus-kriminologik choralarga bo’lish umumiy tan olingan bo’lib[7], ushbu yondashuvni korrupsiyaviy jinoyatlar profilaktikasiga ham to’liq qo’llash mumkin. Korrupsiyaviy jinoyatlarning oldini olishda umum-ijtimoiy choralar jamiyatdagi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni o’z ichiga olsa, maxsus-kriminologik choralar bevosita korrupsiyaviy xatti-harakatlarni aniqlash, sodir etilishiga imkon beruvchi sabablar va sharoitlarni bartaraf etish hamda jinoyat sodir etishga moyil bo’lgan shaxslarga ta’sir ko’rsatishga qaratilgan choralarni o’z ichiga oladi.

Statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratadigan bo’lsak, korrupsiyaga oid jinoyat sodir etgan shaxslar soni 2020-yilda 2164 nafarni, 2021-yilda 4851 nafarni, 2022-yilda 7414 nafarni va 2023-yilda 6535 nafarni tashkil etganini ko’rishimiz mumkin[8].

Shuningdek, korrupsiya jinoyatlari hududlar kesimida tahlil qilinganda asosan aholisi zich va iqtisodiy faolligi yuqori hududlarda sodir etilish aniqlandi. Jumladan, 2023-yilning o’zida davlat manfaatlariga yetkazilgan moddiy zarar bo’yicha eng yuqori ko’rsatkichlar Andijon viloyatida (243 milliard so’m), Namangan viloyatida (194 milliard so’m), Qashqadaryo viloyatida (143 milliard so’m) va Toshkent viloyatida (132 milliard so’m) kuzatilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurash agentligining hisobotiga ko’ra, 2023-yilda korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilganlarning aksariyati tuman va shahar darajasidagi mansabdorlar bo’lib, ularning soni 5024 nafarni tashkil qilgan. Shuningdek, viloyat darajasidagi mansabdorlar orasida 319 kishi, respublika darajasidagi mansabdorlardan esa 12 nafar shaxs korrupsiya jinoyatlari bilan bog’liq javobgarlikka tortilgan. Ushbu raqamlar korrupsiya hodisalari barcha bo’g’inlarda, shu jumladan yuqori qatlamlarda ham uchrayotganini ko’rsatsada, asosan korrupsiya “pastki bo’g’inlar”da keng tarqalganligidan dalolat beradi[9].

Yuqoridagi statistik ma’lumotlar korrupsiyani oldini olish bo’yicha qabul qilinayotgan choralarning samaradorligini baholash, kelgusida amalga oshirilishi lozim bo’lgan harakatlarni

belgilash va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi profilaktik tadbirlarni maqsadli tarzda tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashda yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda, quyidagi qo'shimcha tadbirlarni amalga oshirishi ham muhim ahamiyatga ega:

Raqamlashtirish. Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal sur'atlarda rivojlanishi davlat boshqaruvi tizimida raqamlashtirish jarayonlarini amalga oshirishni talab etmoqda. Bugungi globallashtirish davrida raqamlashtirish davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, davlat xizmatlari sifatini yaxshilash hamda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim vositaga aylangan.

Davlat boshqaruvi jarayonlarini raqamli platformalarga o'tkazish orqali davlat idoralarning faoliyatida ochiqlik va shaffoflik ta'minlanadi. Bu mansabdor shaxslarning qarorlar qabul qilish jarayonlarida oshkoralikni ta'minlashga hamda fuqarolarning davlat boshqaruvida faolroq ishtirok etishiga imkon beradi. Natijada insoniy omilining kamayishi hisobiga korrupsiyaviy xavf-xatarlar sezilarli darajada pasayadi va davlat organlarining hisobdorligi hamda javobgarligi kuchayadi.

Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi (ITU) ma'lumotlariga asosan, 2024-yil holatiga ko'ra, dunyo miqyosida internet xizmatlaridan foydalanadigan aholi soni 5,5 milliard kishiga yetgan bo'lib, bu yer yuzi aholisining 68 foizini tashkil etadi[10].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2024-yilgi "E-Government Development Index" (EGDI) hisobotiga ko'ra, elektron hukumat rivojlanishi bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarni Daniya, Finlandiya, Estoniya va Singapur davlatlari egallagan[11]. E'tiborli jihati shundaki, Transparency International tashkilotining 2024-yilgi hisobotida ham aynan raqamlashtirish jarayonlarini faol joriy etgan yuqoridagi mamlakatlar korrupsiya darajasi eng past davlatlar qatorida joylashganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, Jahon banki ekspertlarining fikrlariga ko'ra, raqamlashtirish korrupsiyaga qarshi kurashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi[12].

Blokcheyn texnologiyasi bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda samarali vosita sifatida bir qator olimlar tomonidan muhokama qilib kelinmoqda. Blokcheyn texnologiyasi – ma'lumotlarni markazlashmagan tarzda saqlash imkonini beruvchi, o'zgartirib bo'lmaydigan va himoyalangan reyestr tizimidir. Uning asosiy xususiyatlari – shaffoflik, o'zgartirib bo'lmaslik va ma'lumotlar yaxlitligini ta'minlashdir. Blokcheyn har bir ma'lumotni o'zgartirib bo'lmaydigan tarzda, doimiy va ochiq holatda saqlaydi. Shu xususiyati tufayli blokcheyn davlat reyestrlari, soliq, davlat xaridlari tizimida va boshqa bir qator sohalarda qo'llash korrupsiyaviy xavf-xatarlarni sezilarli darajada kamaytiradi.

Davlat xaridlari sohasida blokcheyn qo'llanilganda, barcha tender jarayonlari va takliflarni real vaqt rejimida kuzatish imkoni vujudga keladi hamda blokcheynli tender tizimi orqali tanlov shartlarini orqaga qaytib o'zgartirish imkoniyati butunlay bartaraf etiladi. Bu esa tender jarayonlarida maxfiy kelishuvlar va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslikka xizmat qiladi. Jahon iqtisodiy forumining ma'lumotlariga ko'ra, davlat xaridlariga sarflangan mablag'larning 10-30 foizi korrupsiya tufayli yo'qotiladi[13], blokcheyn esa bu yo'qotishlarni kamaytirish imkonini beradi. Bir qator davlatlar, jumladan, Kolumbiyada[14] blokcheyn asosidagi davlat xaridlari tizimi sinovdan o'tkazilgan va samarali natijalar ko'rsatgan. Bundan tashqari, Shvetsiya, Gruziya kabi davlatlarda yer kadastrini va ko'chmas mulk reyestrini blokcheyn texnologiyasi yordamida raqamlashtirish tizimi joriy etilgan.

A.V.Kulikovning fikrlariga ko'ra, blokcheyn tizimi korrupsiyaga qarshi kurashning samarali usuli bo'lishi mumkin, biroq uni muvaffaqiyatli joriy etishda mamlakatning huquqiy tizimi, korrupsiya keng tarqalgan sohalar, davlat boshqaruvi va eng asosiysi zamonaviy axborot texnologiyalarining mavjudligi hisobga olinishi lozim. Korrupsiyani butunlay yo'qotish mumkin emas, biroq yangi axborot tizimlari va texnologiyalarni, jumladan blokcheynni bosqichma-bosqich joriy qilish korrupsiya darajasini pasaytiradi[15].

Ochiqlik va shaffoflik. Korrupsiyaning oldini olishda davlat organlari faoliyatining ochiqligi, shaffofligi, hisobdorligi hamda bu boradagi jamoatchilik nazorati muhim ahamiyatga ega. O.I.Koxanning ta'kidlashicha, "davlat organlari faoliyatida shaffoflik va ochiqlikning yetishmasligi korrupsiyaning tarqalishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi"[16].

Darhaqiqat, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligi korrupsiyaning oldini olishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi axborot ochiqligi va fuqarolarning axborotga bo'lgan huquqini korrupsiyaga qarshi kurashning fundamental prinsipi sifatida belgilagan. Jumladan, Konvensiyaning 10-moddasida davlat organlarining qaror qabul qilish jarayonlari to'g'risida axborotni oshkor qilishi, shuningdek, fuqarolarning korrupsiyaga oid ma'lumotlarga erkin kirishini ta'minlash majburiyatlari belgilangan. Bundan tashqari, Konvensiyaning 13-moddasi jamoatchilik vakillarini korrupsiyaga qarshi kurashga jalb qilish va axborotga kirish imkoniyatini oshirish bo'yicha aniq choralarni nazarda tutadi.

O'zbekistonda davlat tashkilotlarida ochiqlik masalalarini tartibga solishga qaratilgan bir qator muhim qonunchilik hujjatlari qabul qilingan. Bular orasida 2014-yilda qabul qilingan "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun[17] alohida ahamiyatga ega. Shunga qaramasdan, amaliyotda davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligini ta'minlash sohasida bir qator jiddiy muammolar saqlanib qolmoqda. Jumladan, ko'plab davlat organlari va tashkilotlari o'z faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlarni qisman oshkor qilishi yoki ayrim ma'lumotlarni asossiz ravishda maxfiy toifaga kiritish holatlari kuzatilmoqda.

World Justice Project xalqaro nodavlat tashkilotining 2024-yilgi Hukumatning ochiqligi (Open Government)[18] indeksida O'zbekistonning 142 ta davlat orasida 117-o'rinni egallashi mamlakatdagi davlat organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash borasidagi kamchiliklar mavjudligini tasdiqlaydi.

Davlat boshqaruvi tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash hamda korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarga qarshi kurashishda jamoatchilik nazorati muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "bu jarayondan hech kim chetda turmasligi kerak. Shu bois, korrupsiyaga nisbatan murosasiz bo'lish uchun yanada ko'proq sharoit yaratib, bunga keng jamoatchilikni jalb qilishimiz zarur. Avvalo, nodavlat tashkilotlar faolligini oshirish lozim. Bu – eng to'g'ri yo'l"[19]. Davlat rahbarining korrupsiyaga qarshi kurashda keng jamoatchilik va nodavlat tashkilotlar ishtirokini ta'minlash bo'yicha bildirgan fikrlari to'liq asoslidir. Xalqaro tajriba korrupsiya darajasi past bo'lgan davlatlarda aynan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samarali ishlashini ko'rsatadi. Shu sababdan, mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashning samaradorligini oshirish uchun jamoatchilik nazorati institutlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestri.

Korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrini yuritish korrupsiyaning oldini olishda muhim ahamiyatga ega mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu reyestrni yuritishdan asosiy maqsad korrupsiya holatlarining oldini olish, davlat xizmatining halolligi va shaffofligini ta'minlash hamda jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz muhit shakllantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi "Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo'lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PF-6257-son Farmonida[20] ushbu reyestrni joriy qilish va reyestrga kiritilgan shaxslarning davlat xizmatiga qabul qilinishi, davlat mukofotlari bilan taqdirlanishi, saylanadigan yoki alohida tartibda tayinlanadigan lavozimlarga nomzod sifatida ko'rsatilishi, davlat organlari huzuridagi jamoatchilik kengashlari va idoralararo kollegial organlarga a'zolikka qabul qilinishi, shuningdek, tadbirkor sifatida davlat xaridlarida va davlat-xususiy sheriklik loyihalarida ishtirok etishi, davlat ulushi 50 foizdan yuqori bo'lgan tashkilotlar hamda davlat ta'lim muassasalarida rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritishi qat'iy taqiqlanishi belgilangan edi.

Biroq, korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etishda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrini joriy etish to'g'risidagi qonun qabul qilinmaganligi ushbu tizimni amaliyotga joriy etish borasida to'siqlarni yuzaga keltirmoqda. Ushbu holat, shaxsning korrupsiyaga oid jinoyatlarni takroran sodir etishi uchun sharoit yaratishga sabab bo'lmoqda. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda korrupsiyaga oid jinoyat sodir etib sudlangan 566 nafar shaxs davlat xizmatiga qaytadan ishga kirib[21], takroran korrupsiyaviy jinoyatlarni sodir etgan, bu esa davlat va jamiyat manfaatlariga jiddiy zarar yetkazilishiga olib kelmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, Janubiy Koreya, Estoniya, Ukraina va boshqa ko'plab mamlakatlarda korrupsiyaga oid jinoyatlarda aybdor deb topilgan shaxslarning ochiq elektron reyestrlari joriy etilishi ushbu davlatlarda korrupsiya darajasining pasayishiga hamda davlat boshqaruvi samaradorligining oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Bunday ochiqlik tizimi fuqarolar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik uchun axborotdan foydalanish imkoniyatini kengaytirib, korrupsion jinoyatlar uchun muqarrar jazo va jamoatchilik nazoratini kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, jamiyat hayotining turli jabhalari ishtirokini taqozo etadi. Ammo shuni ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish nafaqat tegishli chora-tadbirlarni ko'rish, balki ularni amaliyotga samarali tatbiq etishni ham talab qiladigan jarayondir. Bunda butun jamiyat, jumladan, fuqarolar va nodavlat notijorat tashkilotlarining ishtiroki ham talab etiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Sh.Mirziyoyev 2025-yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yig'ilishidagi nutqi. // [Elektron manba]. <https://president.uz/oz/lists/view/7924>
2. Usmonaliyev M., Karaketov Y. Kriminologiya: Darslik. – Toshkent: TDYI, 2001. – B. 248.
3. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 14-maydagi "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi 371-sonli Qonuni // [Elektron manba]. <https://lex.uz/docs/-2387357>
4. Abdurasulova K.R. Criminology: darslik / mas'ul muharrir M.X. Rustambayev. – Toshkent: Adolat, 2007. – B. 99.

5. Гербеков И.И. Понятие и виды профилактики правонарушений // Юридическая наука и правоохранительная практика. 2017. № 4 (42). С. 102.
6. Клеймёнов М. П., Кондратьев А. В. Специальная профилактика преступлений // Вестник Омского университета. Серия «Право». 2018. № 1 (54). С. 163–165.
7. Niyozova S.S., Salayev N.S. Kriminologiya (umumiy qism) [Matn]: darslik. — T.: TDYU nashriyoti, 2023. – B. 110.
8. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza. – Toshkent, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida milliy ma'ruza. – Toshkent, 2023.
10. Facts and Figures 2024: Internet use // International Telecommunication Union (ITU). – 10 November 2024. – URL: <http://itu.int/itu-d/reports/statistics/2024/11/10/ff24-internet-use/>
11. United Nations E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development // UN DESA, 2024. – URL: <https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024>
12. <https://www.worldbank.org/>
13. How blockchain can help dismantle corruption in government services // World Economic Forum, 5 July 2021. – URL: <https://www.weforum.org/stories/2021/07/blockchain-for-government-systems-anti-corruption/>
14. Exploring Blockchain Technology for Government Transparency: Blockchain Based Public Procurement to Reduce Corruption // [https://www3.weforum.org/docs/WEF Blockchain Government Transparency Report.pdf](https://www3.weforum.org/docs/WEF%20Blockchain%20Government%20Transparency%20Report.pdf)
15. Куликов А.В., Символокова Д.А. Современный способ борьбы с коррупцией – использование технологии блокчейн // Экономическая безопасность и качество. 2019. №1 (34). С. 41.
16. Кохан О.І. Боротьба з корупцією в органах місцевого самоврядування: правові передумови та шляхи подолання // Серія ПРАВО. Випуск 82: частина 2. 2024. С. 182.
17. O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 5-maydagi "Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi 369-sonli Qonuni // [Elektron manba]. <https://lex.uz/docs/-2381133>
18. <https://worldjusticeproject.org/>
19. Sh.Mirziyoyev 2025-yil 5-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish milliy kengashining yig'ilishidagi nutqi. // [Elektron manba]. <https://president.uz/oz/lists/view/7924>
20. <https://lex.uz/docs/-5495529>
21. Daryo.uz. (2024, sentyabr 10). O'zbekistonda 2023-yili korrupsiyada sudlangan 566 nafar davlat xizmatchisi qayta ishga kirib, yana shu jinoyatni sodir etdi. <https://daryo.uz/2024/09/10/ozbekistonda-2023-yili-korrupsiyada-sudlangan-566-nafar-davlat-xizmatchisi-qayta-ishga-kirib-yana-shu-jinoyatni-sodir-etdi>

LEGALSCIENCES.UZ

2-jild 1-son 2026-yil

YURIDIK FANLARNING DOLZARB MASALALARI

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

TOPICAL ISSUES OF LEGAL SCIENCES

“Yuridik fanlarning dolzarb masalalari”

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”

mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog’och ko’chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog’lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).